



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna¹, Pirnazarova Shahlo Boynazar qizi²

*¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti*

*²Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti*

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va uni qo'llash samarasi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, kompetentlik, texnologiya, innovatsion jarayon, texnik vositalar, kompetensiya, zamonaviy ta'lim, hayot davomida o'qish, innovatsion ta'lim.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz ta'lim tizimida va butun hayot davomida har bir shaxsning ijodiy hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikasiya va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish, ularning axborot texnologiyalaridan



foydalanish malakasini oshirishda elektron ta'lim tizimiga o'tish zarurligi konkretlashtirildi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish", "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish" kabi ustuvor vazifalarni bajarishni ta'minlashda psixologik yondashuv asosida mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda bugungi kunda Oliy ta'lim va Xalq ta'lim tizimida, jumladan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish uchun talabalarga barcha fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish taqozo etmoqda.

"Innovatsiya" atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "yangilik kiritish, ixtiro" degan ma'noni anglatib, u yangilanishni, o'zgarishni amaliyotga joriy etish jarayoni va faoliyatidan iborat. Ko'pgina zamonaviy innovatsiyalar tarixiy tajriba bilan uzviylikka ega. Innovatsion jarayon rivojlanishga yo'naltirilgan ongli ravishda, zamonaviy g'oyalar, nazariyalar, usullar, texnologiyalar, jarayonlarni tarqatish, ishlab chiqish va ulardan foydalanish jarayoni va ma'lum mezonlarga javob beradigan va muayyan vaziyatga moslashtirilgan bo'ladi.

Innovasion ta'lim - bo'lajak mutaxassislarni joylarda yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi ta'lim jarayoni bo'lib, uning yordamida avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va unga samarali yangicha yondashishga mustahkam didaktik asos yaratiladi. Innovasion ta'limning asosiy maqsadi tadqiq etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida yangicha sifat ko'rsatkichlariga va, yuqori samaradorlikka erishishdan iborat. Uning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iborat:

Innovatsion jarayon - bu ko'rib chiqilayotgan, ya'ni tadqiq etilayotgan manbani ijodiy o'rganishda innovasiyalarni vujudga keltirish, ularni amaliyotga joriy etish va ommalashtirish faoliyati bilan bog'liq jarayondir. U ilm-fan, texnika-texnologiyalar yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, ta'lim, tarbiya, boshqaruv va mehnatni optimal tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo'llanilishini aks ettiradi. Innovasiya ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishga doimo imkoniyat yaratib boradi.

Milliy innovatsion tizimni shakllantirish ijodiy fikrlaydigan, muayyan fan yo'nalishi va unga bog'liq yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim, ko'nikmaga ega bo'lgan, yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish, raqobatbardosh yangi mahsulot va texnologiyalarni



ishlab chiqish, joriy etish va tarqatish qobiliyatiga ega innovatsion mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash jarayonida innovatsion kompetensiya shakllanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Adabiy manbalarni tahlil qilish natijasida "innovatsion kompetensiya" tushunchasiga aniqlik kiritdik - bu mutaxassis tomonidan innovatsiyani tez va samarali rivojlantirishga yordam beradigan qobiliyat, sifat va malakalar yig'indisidir.

Innovatsion kompetensiyaning mohiyatini o'rganish uchun biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- innovatsion kompetensiya tarkibini o'rganish;
- uni shakllantirish usullarini ishlab chiqish.

Pedagogik nazariya va amaliyot uzluksiz texnik taraqqiyot sharoitida ishlashga qodir shaxsni shakllantirish muammosiga duch kelmoqda, bu esa undan yuqori darajadagi innovatsion malakaga ega bo'lishni talab qiladi. Ushbu pozitsiyalardan biz innovatsion kompetensiyaning tuzilishi va uni shakllantirish usullarini o'rganishni o'tkazdik.

Mutaxassislarning innovatsion faoliyati mazmunini o'rganish bizga innovatsion kompetensiyaning bir qismi sifatida quyidagi vakolatlarni aniqlash imkonini berdi:

- ijodkorlik va improvizatsiya qobiliyati, individual ijodiy uslub, o'ziga xoslik;
- o'z ish tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati;
- innovatsiyalar (yangi kitoblar, maqolalar, ko'rgazmalar, konferentsiyalar, yangi o'quv kurslari) haqidagi ma'lumotlarga moyillik va olingan ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash, o'rganish va qo'llashga tayyorlik;
- o'z-o'zini namoyon qilish va intellektual mehnat, ta'lim va martaba o'sishiga bo'lgan ehtiyoj;
- doimiy o'rganish va dunyoga faol munosabatda bo'lish;
- o'z bilimlarini yangilash istagi;
- aloqa maxorati;
- intellektual qobiliyatsizlik;
- maqsadlilik. Bu kompetensiyalarning ta'lim jarayoni jarayonida rivojlanishi umuman innovatsion kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu kompetensiyalarning mavjudligi, albatta, ko'p jihatdan insonning xarakteriga, uning temperamentiga, tarbiyasiga, tabiiy qobiliyatlariga bog'liq. Lekin o'quv jarayonini puxta rejalashtirilgan holda, xususan, kasb-hunar ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda bu kompetensiyalarni katta darajada rivojlantirish mumkin. Buning uchun quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- sinfda maxsus fanlar bo'yicha ijodiy topshiriqlar va ularning favqulodda yechimlarini rag'batlantirish;
- xulosalar, mustaqil bajarilgan topshiriqlar, ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, semestrda olingan barcha bilimlarni tahlil qilish talabi;



- kasb sohasidagi yangiliklar, ixtirolar, yangi texnologiyalar haqidagi yangiliklarni o'rganish, bu ma'lumotlarni hisobot, referat shaklida tayyorlash talabi;
- talabalarning guruhlarda ishini tashkil etish;
- konferensiyalar, seminarlarda talabalarning ommaviy chiqishlari;
- talabalarga innovatsiyalar haqida ma'lumot berish (filmlar namoyish etish; kasbdagi innovatsiyalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar o'tkazish va ularda ishtirok etishni rag'batlantirish);
- talabalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish;
- innovatsion soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- psixologik testlar, introspektsiya;
- psixologik treninglar;
- o'quvchilarga individual yondashish, ularning qobiliyatlari, temperamentini hisobga olish, o'zini o'zi qadrlashini oshirish, muvaffaqiyatga erishish;
- mustaqil ravishda ishlab chiqilgan loyihalar, g'oyalar, ixtirolarni rag'batlantirish.

Xulosa o'rnida shuni ko'rishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda bo'lajak mutaxassislarning o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida innovatsion kompetensiyasini shakllantirish, o'z ustida ishlash vazifalarini bajarish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va ularni himoya qilishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishda ijodiy faoliyatda bo'lish, uzluksiz ta'lim jarayonidan samarali foydalanish kerak degan xulosaga kelish mumkin. O'qituvchilik faoliyatida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish innovatsion kompetensiyani shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. To'raqulov X.A., Jabborov N.S. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2019.
2. Azamov A. "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent – 2004 y.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro'ziyev. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2012 y.
4. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000 y.
5. Fayziyev M.A. Axborot texnologiyalarini o'rganish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. ISSN: 2181-1776. Vol. 1 No. 02 (2021). 113-123 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/42>
6. Fayziyev M.A. Ta'lim sohasida media vositalaridan foydalanishning psixologik-pedagogik jihatlari // "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776) Vol. 2 No. 5 (2021). Published July 9, 2021 50-62 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/233>